

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLII TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

“MAKROIQTISODIY SIYOSAT VA PROGNOZLASH” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 330.101.541 (575.1)

NE‘MATOV DILSHODJON MUXTOR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MAKROIQTISODIY
BARQARORLIGINI TA‘MINLASH MEXANIZMLARI**

70310103 – “Makroiqtisodiyot” mutaxassisligi bo‘yicha
magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan


DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi:
i.f.d., professor, Berkinov B.B.

Toshkent 2024

Dissertatsiya "Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash" kafedrasida 2024 yil ____ - sonli
" ____ " bayonnomasida dastlabki himoyadan o'tkazilgan.

Kafedra mudiri: Asqarova M.T.




29.05.2024

Imzo

sana


Ilmiy rahbar: Berkinov B.B.



Imzo

sana

Magistr: Ne'matov D.M.



16.05.2024

Imzo

sana

Dissertatsiya "Iqtisodiyot" fakultetining 2024-yil " 21 " 05
No 3/06 sonli bayonnomasi bilan ro'yxatga olingan.

Fakultet dekani



v.b. X.Sh.Rahimov

ANNOTASIYA

Makroiqtisodiy barqarorlashtirishning nazariy jihatlarini mamlakatiqtisodiy xavfsizligining omili sifatida o'rganish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'liga kirishining eng muhim va zarur sharti ekanligi bilan dolzarbdir.

Ayniqsa, bugungi kunda jahonda yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyat davlatlarning makroiqtisodiy vositalar orqali iqtisodiyotini barqarorlashtirish, uning iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, inflyatsiyani cheklash va to'liq ish bilan ta'minlashga qaratilgan harakatlarini kuchaytirmoqda. Shu sababli makroiqtisodiy barqarorlik mohiyatini o'rganish, uni ta'minlash mezonlarini aniqlash va ularning barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash muhim ahamiyatga ega.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sabab, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va barcha boshqa muammolarni hal qilishning asosiy yo'li - bu milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishiga erishishdir. Aholi farovonligini oshirib borish ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq.

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotini makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb mavzulardan biridir. Xususan tadqiqotimiz davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik.

Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash chora-tadbirlarida pul-kredit va budjet-soliq islohatlari orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida ekonometrika tahlil usullari yordamida o'rgandik. Undan tashqari makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash

mexanizmlarini jahon iqtisodiyotida bu sahadagi tajribasi bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash choralari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan hulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: Makroiqtisodiyot, barqarorlik, mexanizm, pul-kredit, budget-soliq, taraqqiyot, strategiya, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, valyuta.

SUMMARY

Studying the theoretical aspects of macroeconomic stabilization as a factor of the country's economic security is relevant because it is the most important and necessary condition for the country to enter the path of stable socio-economic development. In particular, the complex economic situation that has arisen in the world today is intensifying the efforts of countries aimed at stabilizing their economy through macroeconomic means, maintaining its economic growth rates, limiting inflation and providing full employment.

For this reason, it is important to study the essence of macroeconomic stability, to determine the criteria for its maintenance and to evaluate their impact on indicators representing stability.

Since economic development in the national economy is a process that is difficult to determine, economic growth, which is one of its criteria, is analyzed more. The main way to solve social, economic and all other problems in society is to achieve sustainable economic growth of the national economy. Improving the well-being of the population ultimately depends on the level and pace of economic growth.

It is known that the issues of improving the mechanisms for ensuring the macroeconomic stability of Uzbekistan's economy are one of the urgent topics today. In particular, during our research, we carried out extensive work within the scope of the topic. Among other things, we prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local normative documents on the topic.

In order to increase the practical importance of scientific work, econometrics on the basis of statistical data on the extent to which the mechanisms of ensuring macroeconomic stability through monetary and credit and budget-tax reforms are implemented in the measures to strengthen macroeconomic stability and ensure economic growth rates in our country we learned using analytical methods. In addition, we got acquainted with the mechanisms of ensuring macroeconomic stability in the world economy with experience in this field. Based on the studied

and analyzed data, we developed scientifically and practically based conclusions, proposals and recommendations on measures to ensure macroeconomic stability.

Key words: Macroeconomics, stability, mechanism, money-credit, budget-tax, development, strategy, economic growth, inflation, currency.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	7
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	9
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	10
Keltirilgan qisqartmalar.....	11
I BOB. KIRISH.....	12
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	14
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	16
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	16
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	17
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	17
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	18
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	20
2.1. Kirish.....	20
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	20
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	23
2.4. Xulosa.....	28
III BOB. METODOLOGIYA.....	29
3.1. Tadqiqot dizayni.....	29
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	29
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	30
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	35
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	35
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	36
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	37
4.1. Makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy mezonlari va	

	barqarorligini taminlash mexanizmlari.....	37
4.2.	Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda pul-kredit va budjet-soliq islohatlari tahlili.....	43
4.3.	Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	58
V BOB.	XULOSA.....	60
5.1.	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	60
5.2.	Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	60
5.3.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	61
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	63

I BOB. KIRISH

Makroiqtisodiy barqarorlik mamlakat iqtisodiy o'sishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlik inflyatsiyaning past darajada bo'lgan va real almashuv kursi raqobatlasha oladigan darajada bir maromda bo'lgan holatni anglatadi. Bizning tadqiqotimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositalari (fiskal va monetar siyosat dastaklari) mavjudligi ham ta'kidlab o'tiladi.

Odatda xalqaro ekspertlar tomonidan mamlakat miqyosida makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganlik darajasi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida baholanadi: iqtisodiy o'sish, to'la bandlik, ichki narxlarning barqarorligi, milliy valyutaning barqarorligi, barqaror to'lov balansi, baquvvat davlat byudjeti, mamlakat aholisi orasida daromadlarning odil taqsimlanish darajasi va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston iqtisodiyotini makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi mexanizmlardan samarali foydalanish, hamda tomillashtirish masalalarini jahon tajribalariga mos holda amalga oshirib borish davr talabi hisoblanadi.

Bu hususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonda, iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy choralarni doimiy ravishda ko'rib borsin, xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish belgilangan.¹

Shu jumladan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar Birlashgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmoni, 28.01.2022 y.